

«BTS Express Cargo Servis» MChJning OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

Pochta va kuryerlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish to'g'risidagi Ommaviy oferta

Kelgusida "Ijrochi" deb nomlanuvchi, «BTS Express Cargo Servis» mas'uliyati cheklangan jamiyati, nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Jalolov B. R. bir tomondan, "Buyurtmachi" ta'rifiga mos keluvchi har qanday shaxs bilan pochta va kuryerlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma tuzadi.

1. Ta'riflar

- 1.1. **«Shartnoma»** - bu ommaviy oferta aksepti orqali Ijrochi va Buyurtmachi o'rtasida tuzilgan pochta va kuryerlik xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Shartnoma, unga barcha ilovalar, qo'shimchalar va qo'shimcha kelishuvlarni bildiradi. Ushbu ommaviy ofertada Shartnoma (Shartnoma punkti) va/yoki uning shartlariga har qanday havola ushbu ommaviy ofertaga tegishli havolani bildiradi.
- 1.2. **«Aksept» (rozilik)** - Buyurtmachining oferta, uning barcha qoidalari va undan kelib chiqadigan boshqa shartlarning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi.
- 1.3. **«Buyurtmachi»** - bu Shartnoma ushbu shaxs va Ijrochi o'rtasida tuzilgan deb hisoblanadigan akseptni amalga oshirgan jismoniy shaxs.
- 1.4. **«Tomonlar»** - Ijrochi va Buyurtmachini bildiradi. Ijrochi va Buyurtmachi alohida-alohida Tomon deb atalishi mumkin.
- 1.5. **«Bosh shartlar»** (matndagi keyingi o'rinlarda BSh) – Ijrochining sayti www.bts.uz da joylashtirilgan pochta jo'natmalarini va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha umumiy qoidalar, tamoyillar va tartiblarni belgilovchi "BTS Express Cargo Servis" MChJ xizmatlarini ko'rsatish Bosh Shartlari.
- 1.6. **«Tarif Kartasi»** (matndagi keyingi o'rinlarda TK) – Ijrochining www.bts.uz veb-saytida joylashtirilgan "BTS Express Cargo Servis" MChJ xizmatini ko'rsatish uchun tasdiqlangan narxlar va muddatlarga ega bo'lgan ro'yxat va ustama.

2. Shartnoma Predmeti

- 2.1. Buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi, yaqin va uzoq xorij mamlakatlari doirasida yetkazib berish bo'yicha pochta va kuryerlik xizmatlarini ko'rsatish, zarur hollarda, ularni vaqtincha saqlash (bundan keyin "Xizmatlar" deb yuritiladi) bo'yicha xizmatlarni topshiradi, Ijrochi esa ularni o'z zimmasiga oladi, Buyurtmachi esa mazkur xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

3. Umumiy qoidalar

- 3.1. Ijrochi bosh direktorining buyrug'i bilan tasdiqlangan va Ijrochi tomonidan skaner qilingan shaklda www.bts.uz saytida e'lon qilingan Bosh Shartlar (BSh) va Tarif Kartasi (TK) ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu hujjatlardagi Bosh direktorning skaner qilingan imzosi Ijrochi bosh direktorining o'z qo'li bilan imzolangan (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 107-moddasi 2-bandiga muvofiq) imzosining aynan o'zidir. Ushbu hujjatlar bir xil hujjatlarning to'liq elektron nusxasi bo'lib, Ijrochi tomonidan saqlanadi va asl nusxa hisoblanadi.
- 3.2. Jismoniy shaxs quyidagi hollarda Ijrochi bilan Shartnomani imzolagan va mazkur ommaviy oferta (aksept)ning barcha shartlarini qabul qilgan hisoblanadi:

- 3.2.1. www.bts.uz korporativ saytida yoki maxsus BTS Space shaxsiy kabinetini yoki Telegram bot @btsrobot orqali buyurtma berganda;
 - 3.2.2. Ijrochining telefon raqamlari orqali qo'ng'iroq qilish va og'zaki shaklda buyurtma berish, Ijrochining xodimi bilan barcha zarur shart-sharoitlarni kelishib olganda;
 - 3.2.3. Buyurtmani to'g'ridan-to'g'ri Ijrochining ofisida rasmlashtirganda.
- 3.3. Shartnoma tuzilganda, Buyurtmachi Shartnomani, shuningdek, topshirish vaqtida amalda bo'lgan BSh va TK tahrirlarini o'qib, to'liq tanishganini va to'liq roziligini tasdiqlaydi.
 - 3.4. Ushbu Shartnoma Shartnomaning 3.2-bandida ko'rsatilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.
 - 3.5. Ijrochi bir tomonlama tartibda alohida bandlarning mazmunini yoki BSh va/yoki TKning barcha mazmunini o'zgartirishga haqli.
 - 3.6. Ijrochi yangi tahrirdagi BSh, TKning skanerlangan shaklini ular kuchga kirishidan kamida 10 ish kuni oldin www.bts.uz saytiga joylashtiradi. Buyurtmachi ularning ushbu saytda joylashtirilishi, Ijrochi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblash uchun yetarli ekanligini tasdiqlaydi.
 - 3.7. Buyurtmani Shartnomaning 3.2 kichik bandida ko'rsatilgan usullar bilan ro'yxatdan o'tkazgan paytdan boshlab Shartnoma kuchga kiradi va Buyurtmachi Shartnoma shartlari va BShda ko'zda tutilgan barcha huquq va majburiyatlarni oladi.
 - 3.8. Qabul qilingan buyurtma asosida Ijrochi axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritadi va BTS yukxatini rasmiylashtiradi.

4. Xizmatlar narxi va to'lov tartibi

- 4.1. Xizmatlar qiymatini hisoblash Ijrochi tomonidan Buyurtmachining TK xizmatlarini taqdim etish vaqtida ko'rsatilgan tariflar bo'yicha jo'natmalarining jismoniy va hajmiy og'irligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shartnoma bo'yicha tariflar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi "So'm"da belgilanadi.
- 4.2. Buyurtmachi - Jo'natmani qabul qilish yoki jo'natish yoki to'lash vaqtida Ijrochining kassasiga pul mablag'larini kiritish orqali yoki Click to'lov tizimi orqali xizmatlar uchun to'lovni amalga oshiradi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

- 5.1. Ijrochining majburiyatlari:
 - 5.1.1. BShga ko'ra, Buyurtmachidan jo'natmani qabul qilish va uni TKda ko'rsatilgan narx bo'yicha, Buyurtmachining belgilangan manziliga yetkazib berish.
 - 5.1.2. Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan paytdan boshlab va Oluvchiga topshirilgan paytgacha jo'natmaning xavfsizligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ta'minlash, shu jumladan, uchinchi shaxslarga yozishmalar mazmunini oshkor qilmaslik.
 - 5.1.3. Yuklarni tezkor yetkazib berish uchun barcha oqilona choralarni ko'rish.
- 5.2. Ijrochining huquqlari:
 - 5.2.1. Jo'natmada jo'natish ta'qiqlangan tovarlar, moddalar va predmetlar mavjud bo'lganda xizmat ko'rsatishni rad etish.
 - 5.2.2. Buyurtmachidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida va to'liq haq to'lashni, shuningdek ushbu Shartnomaning boshqa shartlarini va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini bajarishni talab qilish.
 - 5.2.3. Oldindan to'lov miqdori mavjud bo'lmagan yoki yetishmagan taqdirda Buyurtmachiga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish.
 - 5.2.4. Yuk tashish uchun yaroqsiz bo'lgan qadoqdagi Buyurtmachining xatlarini qabul qilmaslik.

- 5.2.5. Ushbu Shartnoma maqsadlarini amalga oshirish uchun mahalliy va xorijiy hamkorlarni jalb etish. Shu bilan birga, hamkorlarning harakati (harakatsizligi) uchun barcha mas'uliyat Ijrochiga tegishli hisoblanadi.
- 5.3. Buyurtmachining majburiyatlari:
- 5.3.1. Ijrochiga yetkazib berish uchun ta'qiqlangan jo'natmalarni topshirmaslik, Ijrochiga yuborishga mo'ljallangan jo'natmalar haqida ishonchli ma'lumot taqdim etish.
- 5.3.2. Jo'natmalar tarkibida ta'qiqlangan predmetning yo'qligini tekshirishni amalga oshirish uchun Ijrochi xodimlariga to'sqinliksiz imkoniyat berish.
- 5.3.3. Ijrochi transport vositalari va xodimlarining jo'natmalarni qabul qilish va topshirish joyiga to'siqsiz kirishini ta'minlash.
- 5.3.4. Katta hajmdagi jo'natmalarni joydan ko'chirishda Ijrochi xodimiga yordam berish.
- 5.3.5. Ijrochining xizmatlarini belgilangan muddatda, BSH ga muvofiq qabul qilish va ular uchun to'lovni amalga oshirish.
- 5.3.6. BSHda ko'rsatilgan hollarda Ijrochining xarajatlarini qoplash (optionsiyalar va qoshimcha to'lovlar).

6. Tomonlarning javobgarligi

- 6.1. Tomonlar BSHda ko'rsatilgan majburiyatlarini buzganlik uchun javobgardirlar.
- 6.2. Penya va jarimalar to'lash Shartnoma majburiyatlarini buzgan taqrlarni ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7. Favqulodda vaziyatlar

- 7.1. Yong'in, tabiiy ofatlar, pandemiya, urush, har qanday xarakterdagi harbiy operatsiyalar, blokadalar yoki taqrlardan mustaqil bo'lgan boshqa majburiyatlarni bajarishning iloji bo'lmagan yoki qisman bajarilishiga olib keladigan favqulodda kuch (favqulodda vaziyat) holatlari yuzaga kelganda, ijro muddati bunday holatlar amal qiladigan vaqtga mos ravishda hisobga olinadi.
- 7.2. Agar ushbu holatlar 3 (uch) oydan ortiq davom etsa, har bir tomon Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni kelgusida bajarishdan voz kechish huquqiga ega bo'ladi va bu holda hech bir tomon boshqa tomon taqrfidan yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash majburiyatiga ega bo'lmaydi.
- 7.3. Majburiyatlarni bajarishning imkonini topa olmagan tomon, birinchi imkoniyatning o'zida, boshqa tomonni ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning boshlanishi yoki bekor qilinishi haqida ogohlantirishi zarur.
- 7.4. Favqulodda vaziyatlarning mavjudligi va ularning davomiyligiga ushbu holatlar sodir bo'lgan joydagi vakolatli organlar tomonidan amalga oshirilgan rasmiy bayonotlar (shu jumladan, ma'lumotnomalar) tegishli dalil sifatida xizmat qiladi.

8. Boshqa shartlar

- 8.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan barcha boshqa shartlar bo'yicha tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.
- 8.2. Agar ushbu Shartnoma qoidalaridan biri haqiqiy emas deb topilsa, bunday bekor qilish ushbu Shartnomaning boshqa qoidalariga yoki umuman butun Shartnomaga nisbatan qo'llanilmaydi.
- 8.3. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bekor qilinishidan oldin sodir bo'lgan barcha majburiyatlar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishlari kerak.

- 8.4. Ijrochi har qanday uchinchi tomonni Shartnomani bekor qilish to'g'risida xabardor qilish yoki xabardor qilmaslik va bunday ogohlantirish yoki uning yo'qligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
- 8.5. BSh qoidalari va Shartnoma shartlari o'rtasida ziddiyatlar mavjud bo'lsa, BSH qoidalari ustuvor kuchga ega.
- 8.6. Ushbu Shartnomani bajarishda yuzaga keladigan barcha nizolar tomonlar tarafidan muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.
- 8.7. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, tomonlar o'rtasidagi nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

9. Ijrochining yuridik manzili va rekvizitlari

«BTS Express Cargo Servis» MChJ

Yuridik manzil: 100209, Toshkent sh., Sergeli-3, Obihayot ko'chasi, 3 uy.

Pochta manzili: 100021, Toshkent sh. Shayxontohur timani Furqat ko'chasi, 6.

Hisob raqami: 2020 8000 5047 5513 5001

XAB «TrastBank» Toshkent filialida. MFO: 00850

STIR: 301 050 182, OKED: 53200

Call markaz: 1230

QQS: 326 070 011 963

info@bts.uz